

UDK: 638.145.5

ONA ASALARILARNI URCHISH SIFATIGA QARAB BAHOLASHNING BIOLOGIK ASOSLARI

Fargʻona davlat universiteti talabasi-R. Raxmonov

Fargʻona davlat universiteti talabasi-X.Jamolov

Annotatsiya: Ushbu maqolada asalari oilasini xoʻjalik sifati va mahsuldorligi ona asalariga bogʻliq boʻlishi, ona asalari qanday boʻlsa, oilada qoʻyilgan tuxumidan rivojlanayotgan yangi avlodning oʻsishi ham shunday boʻlishi. Shu sababli asalarilar har doim ham asalarilarda yosh va sifatli ona asalari boʻlishiga intilishlari haqidagi maʼlumotlar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: ozuqa, resurs, asalarizor, asal, gulchang, maydon, oʻtloq, buta, bogʻlar, oʻrmon, kvadrokopter, pakana, yarim pakana, noddiy, taqvim, gulchang, perga, oʻtsimon oʻsimliklar, asal, gul.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ПЧЕЛОМАТОК ПО КАЧЕСТВУ КОРМЛЕНИЯ

Студент Ферганского государственного университета-Р. Рахманов

Студент Ферганского государственного университета – Джамолов Х.

Аннотация: В данной статье качество и продуктивность пчелиной семьи зависит от пчелиной матки, а рост нового поколения, развивающегося из отложенных в семье яиц, такой же, как и у пчелиной матки. По этой причине выделена информация о том, что пчелы всегда стремятся иметь на своей пасеке молодых и качественных пчелиных маток.

Ключевые слова: корм, ресурс, пасека, мед, пыльца, поле, луг, куст, сады, лес, квадкокптер, горох, полгорошка, нодди, календарь, пыльца, перга, травянистые растения, мед, цветы.

BIOLOGICAL BASIS OF ASSESSMENT OF QUEEN BEES BASED ON THE QUALITY OF FEEDING

Student of Fergana State University-R. Rakhmanov

Student of Fergana State University - Kh. Jamolov

Abstract: In this article, the quality and productivity of the bee family depends on the queen bee, and the growth of the new generation that develops from the eggs laid in the family is the same as the queen bee. For this reason, the information that bees always strive to have young and high-quality queen bees in their apiary is highlighted.

Key words: feed, resource, apiary, honey, pollen, field, meadow, bush, gardens, forest, quadcopter, pea, half pea, noddy, calendar, pollen, perga, herbaceous o plants, honey, flowers.

Kirish: Ona asalari yoshi va sifatini oila mahsuldorligiga ta'siri. Asalari oilasini xo'jalik sifati va mahsuldorligi ona asalariga bog'liq bo'ladi. Ona asalari qanday bo'lsa, oilada qo'yilgan tuxumidan rivojlanayotgan yangi avlodning o'sishi ham shunday bo'ladi. Shuning uchun ham asalarilar har doim ham asalarilarda yosh va sifatli ona asalari bo'lishiga intiladilar. Ba'zi bir asalarichilar ona asalarini har yili almashtirishadi, ba'zilar esa har ikki yilda uni almashtirishni afzal ko'radilar. Shuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi bir joylarda ob-havo sharoitini hisobga olib yoz qisqa muddat davom etadi, masalan shimoliy zonalarda va tog'li sharoitlarda bahor kech boshlanib, qish tez kirib keladi, natijada ona asalari qisqa davrda 5-6 oy davomida tuxum qo'yadi xolos. Bu davrda ular kam kuch, energiya sarflaydi hamda sperma zaxirasi hali tugamagan bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Respublikamizning janubiy paxtachilik zonalarda bahor juda erta va qish kech boshlanadi. Bunday davrda ona asalarilar 8-9 oy davomida tuxum qo'yib tez charchaydi, hamda undagi sperma zaxirasi tugash arafasida bo'ladi.

Xuddi shunday asalari oilasi kuchsiz bo'lsa ham, shunday holatni kuzatish mumkin. Bu davrda ona asalari har qancha urinmasin, ona asalarini oziqlantirishda tuxum qo'yish uchun katakchalar hozirlash va lichinkalarni boqishda asalari soni

yetishmaganligi uchun ona asalari tuxum qo'yishni biroz cheklaydi, natijada yil davomida ona asalari atigi 75-100 mingta tuxum qo'yib, o'zining fiziologik qarish yoshini kechiktiradi va kelgusi yilga ham kuch saqlaydi, yoki aksincha, ona asalarilarda faol davr uzoq davom etib, ular yil davomida 200 mingdan ziyod tuxum qo'ysa, bunday holatda ona asalari organizmi tez charchaydi va fiziologik qarish tez boshlanadi.

Shuning uchun ham O'zbekiston sharoitida asalari oilasi erta bahordan to kech kuzgacha 8-9 oy davomida ishlaganligi uchun ulardagi ona asalari har yili almashtiriladi, bu usul ilg'or asalarichilarning ko'p yillik ish tajribalarida obdon tekshirilgan va sinovdan o'tgan.

Farg'ona viloyatining ilg'or asalarichilari har yili ona asalarini almashtirishga erishadilar (Suyarqulov, 1985) Natijada, ana shunday ona asalarisi almashtirilgan oilalarda ko'p miqdorda nasl yetishtirib, yangi shaxobchalar tashkil etib, ko'plab asallari paketlari yetishtirmoqdalar, natijada bunday oilalarda ko'ch ajralib chiqish holatlari bo'lmagan va asalari oilalari boshqa ikki yillik ona asalarili oilalariga nisbatan 35-40 % ko'p asal mahsuloti to'plagan. Shuning uchun ham Farg'onalik asalarichilar asalarizorda faqatgina bir yillik ona asalarilarni saqlashni tavsiya etadilar. Bunday taklifni boshqa viloyat asalarichilari ham ko'plab quvvatlamoqdalar.

Asalari oilasi mahsuldorligini oshirishda va nafaqat uning yoshi, balkim ona asalari sifati va u qanday sharoitda yetishtirilganligi hamda asalari zoti ham katta ahamiyatga egadir.

Ona asalarining sifati, belgilari quyidagilardan iborat:

a) Ona asalarining qaysi zotga mansubligi, (nasl-nasab, duragayligi va hokazolar) Bunday asalari oilalri o'z irsiy belgilarini o'z avlodiga berib, har qanday ob-havo sharoitida va asal yig'imi mavsumida ham yuqori darajada mahsuldorlikni belgilab beradi.

b) Ona asalarini rivojlanish darajasi uning jinsiy a'zolari tomonidan ko'p miqdorda tuxum qo'yishini ta'minlanish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Asalari oilasidagi kam mahsulli ona asalarilari hech vaqtda ham oilani asosiy asal yig'imigacha rivojlanishini ta'minlay olmaydi.

Ona asalarilarni tuxum qo'yish imkoniyatlari, uning tuxumdonlarini rivojlanish darajasiga hamda tuxumdonlaridan tuxum naychalarini sifatiga bog'liq. Lekin, ona asalarining bunday belgilari bir vaqtning o'zida chiqarilgan har xil ona asalarilarda

ham bir-biridan keskin farq qilib turadi. Masalan, bir xil asalari oilasida ko‘ch ajratish oldidan qo‘yilgan onadonlardagi ona asalarilarni vazni ham o‘zgaruvchan bo‘lib, 110 dan 230 mg gacha bo‘ladi, uning tuxumdonlaridagi tuxum naychalarini soni ham 90 dan 200 tagacha farq qilib turadi.

Ona asalarining sifati uning yetishtirish davridagi rivojlanish xususiyatlariga, ya‘ni ona asalarining 5-6 kunligiga bo‘lgan davrda oziqlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi davrda ona asalari yetishtirishda xuddi ana shu xususiyatlarga e‘tibor berish va ona asalari sifatini oshirish tajribalari o‘tkazilmoqda hamda Respublikada ko‘p yillik o‘tkazgan ilmiy tajribalarida K. Raxmatov (1967) shunday hulosaga keladiki, aprel va may oylarida yetishtirilgan ona asalarilar bitta tuxumdonidagi tuxum naychalari mart, iyun, iyul oylarida yetishtirilganlarga nisbatan ancha ko‘p, ya‘ni aprelda yetishtirilganlardan 115-185 ta yoki o‘rtacha 157,8 tani tashkil etgan bo‘lsa, may oyida yetishtirilganlarda esa 110-185 tani yoki o‘rtacha 162 ta tuxum naychalarini tashkil etgan. Xuddi shunday tuxum naychalarning uzunligi ham aprel va may oylarida ancha farq qilgan, ya‘ni aprel oyida uning uzunligi 3,40 mmni tashkil etgan bo‘lsa, may oyida esa 3,23 mm ni tashkil etgan. Qolgan oylarda esa bu ko‘rsatkich ancha past bo‘lgan. Xuddi shunday A. Kraxotining (1968) o‘tkazgan tajribalarida mahalliy zotdagi ona asalarilardagi tuxumdonlarida o‘rtacha 198,6 ta tuxum naychalari borligi aniqlagan. Respublikamizda yetishtirilayotgan ona asalarilarning qorin xalqalaridagi uchinchi tergiltarining hajmi tekshirib ko‘rilganda (K. Raxmatov, 1967 y) aprel oyida yetishtirilgan ona asalarilarda 12,2 mmni tashkil etgan bo‘lsa, qolgan oylarda yetishtirilgan ona asalarilarda esa bu ko‘rsatkich ancha past bo‘lgan.

c) Ona asalarining kanot qismi ham asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ona asalarida qanot hajmi qancha keng bo‘lsa, ular erkak asalari bilan xavoda uchrashayotgan vaqtda katta ahamiyatga ega, chunki u toza havoda ko‘plab erkak asalarilar bilan uchrashgan vaqtda ularni kuchli va keng kanotlari bilan olib uchishiga to‘g‘ri keladi. K. Raxmatovning (1967) ko‘p yillik tajribalardan aniqlashicha, boshqa oylarga nisbatan ancha ko‘p qanot kengligi, aprel oyida 9,21 mm, moy oyida 9,39 mm ni tashkil etgan. Shuning uchun ham ona asalarilarning qanot kengligi oilada muhim rivojlanishidan farqini kamaytirishga e‘tibor berish lozim.

Tadqiqot natijalari: Ona asalarining eksterer va interer sifatlarini belgilovchi xususiyatlari-uning a'zolarini rivojlanish darajasiga, hamda uning tuxum qo'yuvchi a'zolariga aloqador jarayonlarga bog'liq bo'ladi.

a) **Ona asalari tuxumdonidagi tuxum naychalari soni katta ahamiyatga ega bo'lib**, bunda ona asalarning tuxum qo'yishga qodirlik imkoniyatlari aniqlab olinadi. Ona asalarining tuxumdonidagi tuxum naychalarining soni bilan uning kunlik tuxum qo'yish o'rtasida mustahkam ijobiy aloqa, ya'ni o'zaro bog'liklik mavjuddir.

b) **Ona asalarining urug'don diametri** uning jinsiy a'zolari rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Urug'don sharsimon shaklga ega bo'lib, uning devorlari mustahkam va aniq ko'rinadigan bo'ladi. Ona asalari tuxumdonining hajmi 0,7-0,9 mm ni tashkil etadi.

c) **Ona asalari qornidagi tergite va sternitlarning hajm kengligi**, unda jinsiy a'zolarini joylanish sig'imi va tuxumdonlarining o'lchamiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, ona asalari qornidagi uchinchi qarish ternitin va sternitini hajmi boshqalardan ancha kattaligi uchun, ularni o'lchash va ma'lumotlar olish qabul qilingan.

d) **Ona asalari zahar bezlarini uzunligi.** Ona asalari garchand nishlarini ishlatmasada, lekin ularda katta zahar bezlari, boshqa ishchi asalarilarga nisbatan ancha uzun va yaxshi rivojlangan. Sermahsul ona asalarilarga, kammaxsul ona asalarilarga nisbatan katta zahar bezlari yaxshi rivojlangan va ancha uzun. Shuning uchun ham ona asalari zahar bezlarini uzunligi bilan, uning kunlik o'rtacha tuxum qo'yishi o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy o'zaro bog'liqlik mavjud. (Sultonov R, 1980) Bular albatta ona asalarining zahar bezlari ham tuxum ko'yishida ishtirok etishini va uning urug'ligi esa ona asalarini sifat ko'rsatgichlarini belgilaydi.

e) **Ona asalarining xajmi** uning asosiy sifat ko'rsatgichlarini va kelgusida undan foydalanish maqsadini belgilab beradi. Bu ko'rsatgichlarni, uning vazni tarzida o'lchab bilish mumkin. Uning vazni og'irligi jinsiy a'zolarining rivojlanganlik ko'rsatgichlarining yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Ona asalarining vazni dastlabki 2-3 kunlik davrida ancha og'ir bo'ladi, yoshi ulg'aygan sari ichaklaridagi ahlatlarning tashqariga chiqarishi natijasida, uning tana hajmi ancha kichrayib boradi.

Farg'ona viloyatidagi yirik asalarichilik xo'jaliklarida o'tkazilgan ko'p yillik tajribalar natijasida (Sh. Suyarqulov, 1980) shuni ko'rsatdiki, aprel va may oylarida



yetishtirilgan ona asalarilar mart, iyun, iyul oylariga yetishtirilganlariga nisbatan hajmi og‘ir bo‘lgan, ya’ni aprel oyida yetishtirilgan ona asalarilarda vazni 190,0 mg bo‘lsa, may oylaridagiga esa o‘rtacha 204,0 mg ni tashkil etgan. P. Oganesyanning (1978) tekshirishlarida esa eng yaxshi hajmli ona asalari aprel oyidagisi bo‘lib, uning vazn og‘irligi o‘rtacha 193,5 mg ni tashkil etgan. Ona asalarining hajmi asalari oilasida asal yigishda ham birmuncha ta’sir etadi.

1-Jadval

Har xil xajmdagi ona asalarilarning tasnifi (G.Taranov ma’lumotlari bo’yicha)

Ona asalari xajmi.	Har bir tuxumdondagi tuxum naychalarining soni (dona)	Asal yigimidan oldin oiladagi nasl miqdori (ming dona)	Oilaning asal to‘plashi (kg)
Eng katta	170	28,4	27,6
Kata	165	25,4	25,5
O‘rtacha	162	24,3	25,3
O‘rtadan past	147	23,3	24,4
Kichik	109	22,5	19,2

Xulosa: Ona asalarining hajmidan uning sifatini yetarlicha bilib bo‘ladi, uning sifati ona asalarilarni yetishtirish davridagi oziqlantirishga, havo haroratiga va uya namligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tabiiy onadonlardan foydalanish va ularni ona asalari sifatiga ta’siri-tabiiy sharoitda har bir asalari oilasi uch xil holatda, ya’ni asalari oilasi ko‘ch ajratish uchun tayyorgarlik chog‘ida, oilada sifatsiz, nuqsonli ona asalari bo‘lganida va oilada to‘satdan ona asalari o‘lib qolganda yoki asalarichi tomonidan u olib qo‘yilgan taqdirda yangi ona asalari yetishtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asalarichilikda tajriba ishlari. V.Bravarskiy. Sh. Suyarqulov. Ya. Brindza. V. Otchenashko. Toshkent- “Print. Media” bosmaxonasi. 2021 yil.
2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. “Pchelovodstvo”, 2015, №4, str. 44-46.b
3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 666-671.b





4. R.Jamolov., O.To‘rayev, D.Xatamova. “Asalarichilik asoslari”, Farg‘ona “Classik”, 2022.yil
5. R.K.Jamolov, “Ona asalarining eksterer va interver ko‘rsatkichlari”, Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific. 2023 yil
6. Jamolov R., Boboyev B., O‘ktamjonov S. Farg‘ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati Science and innovation.–2022.–t. 1.–№. d7.–c. 43-49.b
7. R Jamolov, H Raximov, A Tojaliyev. [Asalarining harakatlanuvchi a‘zolari](#). Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan 1 (7), 282-287 b
8. R.Jamolov. [O‘zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irqi tarkibi](#). (Science and innovation 2 (Special Issue 8), 630-634 b)
9. R.Q. Jamolov, G.H. Sharofiddinova. “[Honeycomb, structure and reproduction of inches in the frame](#)”. Образование наука и инновационные идеи в мире 18 (1), 57-61b
10. Jamolov R.Q, Raximov H, Tojaliyev A. [Asalarilarning g‘umbak oldi va g‘umbaklik davri](#). Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2023/10/30.
11. R Jamolov, R Azizov, Z. Oktamova [Peaceful replacement of queen bees by honey bee colonies and factors affecting queen quality](#) Science and innovation 1, 229-23
12. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Siddiqova, G., & Ro‘zmamatova, I. (2022). URUG ‘EKISH MUDDATLARINING KUZGI BUG ‘DOY NAVLARI HOSILDORLIGIGA TA’SIRI. *Science and innovation*, 1(D7), 118-121.3 b.
13. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Sheraliyeva, Z., & Xoliqova, O. (2022). THE INFLUENCE OF SEEDING TIMES ON THE YIELD OF WINTER WHEAT VARIETIES. *Science and Innovation*, 1(7), 122-125.
14. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). Iop publishing.
15. K Davronov, N Teshaboyev [THE EFFECT OF FOLIAR APPLICATION OF MICRO ELEMENT FERTILIZERS ON COTTON FLOWERING DYNAMICS IN COTTON CULTIVATION](#) - Science and innovation, 2023 2-tom Special Issue 6, 193-196 bet